

O'ZBEKISTON VA ISPA NIYA DAVLARI HAMKORLIGINING TARIXIY ILDIZLARI

Aziza Ulugbekovna Izzatova

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti "Jahon tarixi" kafedrasi o'qituvchisi

Izzatovaaziza8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining Ispaniya bilan do'stlik hamkorliklarining o'rnatilishi uning tarixiy ildizlari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Diplomatik aloqalar.

KIRISH

XXI asr texnologiyalar asri, globallashuv zamonida davlatlar bilan do'stlik o'rnatish hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, davlatlarning tinch-osoyishtaligini ta'minlash bilan barobar davlatlar manfaatlariga ham xizmat qiladi. Do'stona munosabatlar orqali yuzaga keladigan hamkorlik nafaqat kishilarni muvaffaqiyatlarga yetaklaydi, balki u davlatlar o'rtasida amalga oshirilsa taraqqiyot uchun zamin ham yaratishi tabiiydir. Shu boisdan ham ikki qit'a – Yevropa va Osiyoda joylashgan Ispaniya va O'zbekiston davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik zaminida tomonlarning teng manfaatlari bor, albatta.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Tarixiy tadqiqotlarga ko'ra, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladi. Sharq va G'arb davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalar rivoji Amir Temur va temuriylar davrida o'ziga xos va takomil bosqichiga kirganligi bilan ajralib turadi. O'sha davrda Yevropaning yirik davlatlaridan biri – Ispaniya bilan hamkorlik aloqalari keng yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash o'rinnlidir.

Olti asr muqaddam Sohibqiron Amir Temur va Kastiliya qiroli Enrike III sa'y-harakati bilan Samarqandda va Kastiliya poytaxti Segoviyada elchixonalar ta'sis etilgan. O'zaro hamkorlikning bugungi yuksak darajasiga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Qirol Xuan Karlos I o'rtasida qaror topgan alohida munosabatlar tufayli erishildi.

NATIJALAR

"Sohibqiron Amir Temur tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi

bo'lgan, bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy me'ros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, buniyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi", - deb yozadi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida. Shu bois ham Amir Temur yashab o'tgan davrni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu davr Ispaniya va O'zbekiston munosabatlarining tarixiy ildizlarini ochib berishga xizmat qiladi. Mashhur ispan sayyohi va elchisi Rui Gonzales de Klavixoning "Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" Temur va temuriylar davri tarixidan xabar beruvchi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Kundalik 1404- yilda Samarqandda Amir Temur saroyida turgan Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III (1390-1406)ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yo'l xotiralaridan iborat, ya'ni uning 1403-1404 yillarda Turkiya, Eron va Movarounnahrda, xususan Amir Temur saroyida ko'rganbilganlarini o'z ichiga olgan muhim asardir. Klavixoning Amir Temur yurtiga qilgan elchilik sayohati 1403-yilning 22- mayida boshlanib, o'n besh oy deganda u Samarqandga yetib keladi. Bu sayohatda Klavixoga ilohiyot ilmining nomzodi (magistri) Al'fonso Paes de Santa Mariya, qirolning maxsus soqchisi Gomes de Salazar hamroh bo'ldilar. Klavixoning safari Amirlarning 1402-yilda Ispaniyaga Xoja Muhammad qozi boshchiligida yo'llagan elchiligiga javoban qilingan edi. Tarixiy manbaalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, XIV asrning 80-90-yillarida Temur davlatining shon-shuhrat Yevropa mamlakatlarigacha borib yetadi. Angliya, Fransiya, Ispaniya, Genuya va Vizantiya singari davlatlarning hukmdorlari Amir Temur bilan siyosiy va savdo munosabatlari o'rnatishga intilib, ulug' jahongir huzuriga muntazam ravishda o'z elchilarini yuborib turadilar. Masalan, yuqorida tilga olingan Kastiliya qiroli Genrix III ning elchisi don Pelagiya de Satomatir va don Ferdinand de Palasunoe 1402-yilda Amir Temur Qorabog'da turganida, uning huzuriga kelishgan va o'sha yilning 20-iyulida Amir Temur bilan Boyazid I Yildirim (1389-1402) qo'shinlari o'rtasida bo'lgan urushni tomosha qilgan. Jangdan keyin uyushtirilgan katta qabul marosimida bulardan boshqa yana bir talay mamlakatlarninig elchilari ham qatnashgan. Klavixoning Amir Temur huzuriga qilgan elchilik sayohati juda uzoq, xavf-xatar va mashaqqatlar bilan to'la safar bo'lgan. Klavixo va uning hamrohlari Ispanianing janubi-sharqiy tarafida joylashgan Kadis shahridan yelkanli kemada O'rtayer dengizi bo'ylab suzganlar, so'ngra Istanbul, Trabzon, Arzirum, Tabriz, Tehron, Mashhad, Marv va Balx orqali quruqlikda yo'l bosdilar. Ular Termiz qarshisida Amudaryodan o'tib, Kesh orqali 1404-yilning 31-avgustida Samarqand qishloqlaridan Misrga keldilar va Sohibqironning shu atrofdagi

chorbog'iga kelib tushdilar. Shuni ham aytish kerakki, o'shanda Klavixo bilan birga Misr va Turkiya sultonining elchilari ham Samarcandga kelganlar.“Kundalik”da o'sha vaqtarda Amir Temur qo'l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli, xalqining kun kechirishi, Temur va uning yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar, qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar savdo rastalari, do'konlar, ustaxonalar, temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda (Klavixo uni Tatariston deb ataydi), Mo'g'uliston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo'lgan tartib-qoidalar va nihoyat, Sohibqironning xotinlari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar, shubhasiz, Turkiston zaminning o'sha vaqtlardagi tarixini, ota-bobolarimizning turmush tarzini o'rganishda muhim tarixiy manbalardan biri rolini o'tashi turgan gap.

MUHOKAMA

Rui Gonzales de Klavixo o'zining elchiligi davrda ko'rgan va tanishgan hamda o'qigan manbalariga tayanib, “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi”, “Samarqandga sayohat kundaligi” nomli kitoblarni yozdi va nashr qildirdi. Demak, Yevropa xalqlari XVI asrdayoq buyuk Amir Temur va temuriylar davlati hamda uning dovrug'i haqida ma'lum darajada ma'lumotlarga ega bo'lishgan.

O'zbekistonning Yevropa davlatlari, jumladan Ispaniya bilan xamkorligi Amir Temur davridan keyin aytarlik darajada bo'lmagan, xonliklar, musi\tamlaka davrida bu bo'yicha aytarlik ishlar qilinmagan. Sovet davrida ittifoq miqqosidagi olib borilgan tashqi siyosat doirasida o'zaro aloqalar bo'lgan. Masalan, Ispaniyaning Kardova shahri bilan O'zbekistonning Buxoro shahri o'zaro birodarlashgan shahri bo'yicha bitim bo'lgan.

O'zbekiston va Ispaniya o'rtasidagi ikki tomonlama siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy soxalardagi alokalar mustaqillik yillarda to'la қonli ravishda yo'lgan ko'yildi.

Ispaniya hamda O'zbekiston mamlakatlari asrlar davomida dunyo hamjamiyatini qiziqtirib kelgan. Davlatlar o'rtasidagi teng sheriklik asosidagi hamkorlik har ikkala tomon uchun istiqbol eshiklarini ochmoqda va umumiy istiqbolli taraqqiyot uchun omil bo'lib xizmat qilaveradi.[5].

XULOSA

Mamlakatimiz Yevropa bilan ikki va ko'p tomonlama istiqbolli munosabatlarni davom ettiradi. Savdo-sotiq, investitsiya va moliya, yuqori texnologiyalar transferi, ilmfan, texnika, ta'lim,

ekologiya, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash O'zbekiston — Yevropa munosabatlarining asosiy ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro rnunosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnnini egalladi, uning mavqeyi yildan— yilga mustahkamlanib bormoqda.

REFERENCES

1. МИД РУз //Цели задачи внешне политического курса Узбекистана. <http://www.mfa.uz>
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Иккинчи нашри. – Тошкент.: Маънавият, 2011. - Б.44.
3. Руи Гонзалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. (1403 - 1406 йиллар). –Тошкент.:Ўзбекистон, 2010. – 262 б.
4. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. – Т., “O'zbekiston” НМИУ. 2019 –Б. 392 ..
5. A Izzatova.(2019). O'zbekiston – Ispaniya o'rtaсидаги hamkorlik va uning rivojlanishi. Экономика и социум, 2022 - cyberleninka.ru.